



GLOBALLASHUV SHAROITIDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNING JAMIYAT BARQARORLIGIDAGI O‘RNI.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti o‘qituvchisi:

Ro‘ziyev Navro‘z Ixtiyor o‘g‘li

Toshkent davlat tibbiyot universiteti 2-kurs talabasi

Odilova Sevara Baxtiyorjon qizi

Annotatsiya:

Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida diniy bag‘rikenglikning jamiyat barqarorligini ta‘minlashdagi muhim o‘rni tahlil qilinadi. Globallashuv natijasida turli dinlar, e‘tiqodlar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning kuchayishi jamiyatda diniy munosabatlar masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda. Tadqiqot davomida diniy bag‘rikenglik tushunchasining nazariy asoslari, uning ijtimoiy barqarorlik, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashdagi ahamiyati yoritib beriladi. Shuningdek, diniy bag‘rikenglikning ekstremizm va radikalizmning oldini olishdagi roli, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda tinchlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta‘minlashdagi funksiyalari ilmiy jihatdan asoslanadi. Maqola xulosalarida globallashuv sharoitida diniy bag‘rikenglikni mustahkamlash jamiyat taraqqiyoti va barqaror rivojlanishining muhim omili ekanligi ta‘kidlanadi.

Kalit so‘zlar

Globallashuv, diniy bag‘rikenglik, jamiyat barqarorligi, dinlararo muloqot, konfessiyalararo totuvlik, ijtimoiy hamjihatlik, madaniyatlararo integratsiya, tinchlik va barqarorlik, diniy plyuralizm, fuqarolik jamiyati, ma‘naviy qadriyatlar, millatlararo totuvlik, ekstremizmga qarshi kurash, radikalizmning oldini olish, diniy erkinlik, bag‘rikenglik madaniyati, ijtimoiy muvozanat, diniy identitet, global tahdidlar, ijtimoiy birdamlik, diniy siyosat, inson huquqlari, ma‘rifiy yondashuv,



diniy qadriyatlar, jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy barqarorlik omillari, diniy ekstremizm, ma'naviy xavfsizlik, konfessiyalararo hamkorlik, global jamiyat

Аннотация:

В данной статье анализируется значимая роль религиозной толерантности в обеспечении стабильности общества в условиях глобализации. В результате процессов глобализации усиление взаимодействия между различными религиями, вероисповеданиями и культурами делает проблему религиозных отношений в обществе особенно актуальной. В ходе исследования раскрываются теоретические основы понятия религиозной толерантности, а также освещается её значение в укреплении социальной стабильности, межнационального и межконфессионального согласия. Кроме того, научно обосновывается роль религиозной толерантности в предупреждении экстремизма и радикализма, развитии гражданского общества, а также в обеспечении мира, общественного согласия и социальной солидарности. В выводах статьи подчёркивается, что укрепление религиозной толерантности в условиях глобализации является важным фактором общественного развития и устойчивого прогресса.

Ключевые слова:

Глобализация, религиозная толерантность, стабильность общества, межрелигиозный диалог, межконфессиональное согласие, социальная солидарность, межкультурная интеграция, мир и стабильность, религиозный плюрализм, гражданское общество, духовные ценности, межнациональное согласие, борьба с экстремизмом, предупреждение радикализма, свобода вероисповедания, культура толерантности, социальное равновесие, религиозная идентичность, глобальные угрозы, общественная сплочённость, религиозная политика, права человека, просветительский подход, религиозные ценности, общественное развитие, факторы социальной



стабильности, религиозный экстремизм, духовная безопасность, межконфессиональное сотрудничество, глобальное общество

Abstract:

This article analyzes the significant role of religious tolerance in ensuring social stability in the context of globalization. As a result of globalization processes, the intensification of interactions among different religions, beliefs, and cultures has made the issue of religious relations in society increasingly relevant. The study examines the theoretical foundations of the concept of religious tolerance and highlights its importance in strengthening social stability, interethnic harmony, and interconfessional cooperation. In addition, the article scientifically substantiates the role of religious tolerance in preventing extremism and radicalism, promoting the development of civil society, and ensuring peace, social cohesion, and solidarity. The conclusions emphasize that strengthening religious tolerance under conditions of globalization is a key factor in social development and sustainable progress.

Keywords:

Globalization, religious tolerance, social stability, interreligious dialogue, interconfessional harmony, social solidarity, intercultural integration, peace and stability, religious pluralism, civil society, spiritual values, interethnic harmony, countering extremism, prevention of radicalism, freedom of religion, culture of tolerance, social balance, religious identity, global threats, social cohesion, religious policy, human rights, educational approach, religious values, social development, factors of social stability, religious extremism, spiritual security, interconfessional cooperation, global society

Har bir mamlakatning rivojlanishi, uning jahon hamjamiyatidagi oʻrni, eng avvalo, unda tinchlik va totuvlikning qay darajada mustahkamligi, bagʻrikenglik ruhining qanchalik kuchli ekanligi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan, islom madaniyatining muhim markazlaridan biri hisoblangan Oʻzbekiston siyosati,



avvalo, dinlararo va millatlararo totuvlik asoslariga, boshqa madaniyatlar, tillar, e'tiqodlar hamda an'analarga hurmat tamoyillariga tayanadi. Bu qadriyatlar asrlar davomida ma'naviy boylik sifatida avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston xalqining aksariyati o'z shaxsiy farovonligidan ko'ra, oila a'zolari, qarindosh-urug'lari, yaqinlari va qo'ni-qo'shnilar salomatligi hamda farovonligini ustuvor deb biladi. Bu insonning eng oliy ma'naviy qadriyatidir. Xalqimiz hech qachon o'zini boshqa xalqlardan ustun qo'ymagan, boshqa millatlar va konfessiyalar vakillariga nisbatan doimo hurmat va ehtirom ko'rsatib kelgan. O'zbekistonliklar mentalitetining ushbu xususiyati asrlar davomida shakllangan. Qadimiy va barakali O'zbekiston zaminida turli madaniyat va sivilizatsiyalar vakillari yashab kelganligi xalqimizning o'ziga xos dunyoqarashini shakllantirdi. Natijada mehr-oqibatli, tinchliksevar, ochiqko'ngil, bag'ri keng va saxovatli ruhiyat yuzaga kelgan. O'zbekiston hududida millat va elatlarning tinch-totuv yashashining muhim manbai aynan o'zbek xalqining ana shunday o'ziga xos mentalitetiga borib taqaladi. Xalq mentalitetining o'ziga xos jihatlari, eng avvalo, asrlar davomida shakllangan tarixiy tajriba, urf-odat va an'analar tizimiga asoslanadi. Hozirgi O'zbekiston hududida turli etnik guruhlar va konfessiyalar vakillari kesishgan va hamkorlikda yashagan. Mintaqa xalqlari rang-barang madaniyatlar, an'analar va diniy e'tiqodlarni meros qilib olgan bo'lib, bu holat bugungi kunda ham Osiyo va Yevropa unsurlarini uyg'unlashtirgan noyob madaniy mozaikani tashkil etadi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy bosqichda har qanday jamiyat uchun diniy ta'limni rivojlantirish hamda millatlararo va konfessiyalararo bag'rikenglikni mustahkamlash nihoyatda muhim masala hisoblanadi. Ming yillar davomida Markaziy Osiyo turli dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari uchrashuvi hamda birgalikda yashash markazi bo'lib kelgan. Etnik bag'rikenglik va ochiqlik yashab qolish va taraqqiyot uchun zarur bo'lgan tabiiy me'yorlarga aylangan [1, 13-b.]. O'zbekiston Markaziy Osiyoning qoq markazida, ko'plab madaniyatlar chorrahasida joylashgan bo'lib, bu holat uning



sivilizatsiyalararo ko‘p asrlik muloqotdagi o‘rnini belgilab berdi hamda millatlararo va konfessiyalararo jarayonlarning rang-barangligida o‘z aksini topdi.

Mazkur ishning maqsadi — O‘zbekiston Respublikasida diniy ma’rifatni rivojlantirish va islom sivilizatsiyasi merosini o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida diniy ta’lim va ma’rifiy faoliyatni kuchaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda diniy hayot ma’naviy jihatdan sermazmun va boydir. Respublika hududida 16 turli konfessiyaga mansub 2238 ta diniy tashkilot o‘z faoliyatini olib bormoqda. Aholining 94 foizdan ortig‘i islom diniga e’tiqod qilishi inobatga olinsa, tashkilotlarning aksariyati — 2064 tasi islomiy tashkilotlardir. Shuningdek, 157 ta xristian tashkiloti, 8 ta yahudiy jamoasi, 6 ta bahay jamoasi, 1 ta buddaviylik ibodatxonasi, 1 ta krishnachilar jamiyati faoliyat yuritadi. Bundan tashqari, konfessiyalararo O‘zbekiston Bibliya jamiyati ham faoliyat ko‘rsatmoqda [2, www.gazeta.uz/ru, 2015/11/17].

O‘zbekistonda diniy hayot davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida e’tirof etilgan diniy plyuralizm, konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik tamoyillari bilan tavsiflanadi. Mamlakat fuqarolari tomonidan ushbu uch prinsipning anglanishi va qo‘llab-quvvatlanishi dinning jamiyat hayotidagi munosib o‘rnini tiklash jarayonini aks ettiradi hamda 16 turli konfessiyaning erkin va demokratik jamiyat sharoitida tinch-totuv yashab kelayotgani bilan tasdiqlanadi. Barcha diniy konfessiyalar vakillariga o‘z e’tiqodiga erkin va to‘sqinliksiz amal qilishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

So‘nggi yillarda bu borada sezilarli yutuqlarga erishildi. Xususan, Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatni xalqaro islomiy ta’lim markaziga aylantirish g‘oyasi ilgari surildi. Shu maqsadda diniy xizmatchilarning umumiy



tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirish maqsadida hukumat huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyat yuritadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va mentalitetimiz asosini tashkil etadi". Bu millati va dinidan qat'i nazar, insonni ardoqlash, o'zgalarni qadrlash, kattaga hurmat, kichikka izzat ko'rsatish kabi tuyg'ular aholining qon-qoniga singib ketganidan dalolat. Aynan shu sifatlar xalqimizga xos diniy bag'rikenglikning ma'naviy asosini tashkil qiladi.

Dunyo miqyosida millatlararo va konfessiyalararo hamkorlik, hamjihatlikni mustahkamlash ko'p jihatdan jamiyat hayotiga bag'rikenglik tamoyillarining samarali joriy etilishiga bog'liq. Jahondagi murakkab va ziddiyatli kechayotgan jarayonlar turli din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik va hamjihatlik ruhidagi aloqalarni mustahkamlash tarixiy zaruriyat ekanini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham mamlakatimizda qabul qilingan «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi»ning beshinchi bandida «xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat» mamlakatimizda asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan 2017 yil 19 sentyabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida bag'rikenglik va o'zaro hurmatni qaror toptirish, diniy erkinlikni ta'minlash, e'tiqod qiluvchilarning huquqini himoya qilish, ularning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslikka ko'maklashishga qaratilgan «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi ilgari surildi [5, 5-b].



Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat - engilmas kuch” asarida yozganidek, o‘tmishda har qanday ta’qidlarga qaramasdan, xalqimiz bari-bir o‘z muqaddas diniga sodiq qoldi [6, 10-b].

Diniy ta’lim sohasidagi o‘zgarishlarning yorqin ifodasi — yetarli miqdorda malakali diniy kadrlar tayyorlashga qaratilayotgan e’tibordir. Bu borada 2003 yil 22 avgustdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 364-sonli qarori alohida o‘rin tutadi [3, https://gov.uz/oz/mfa/ru/islamic-cooperation/islamiccivil/8126?sphrase_id=10320842]. Mazkur qarorga muvofiq, Toshkent islom instituti hamda diniy va dunyoviy fanlar birgalikda o‘qitiladigan o‘rta maxsus diniy ta’lim muassasalari bitiruvchilariga beriladigan diplomlar davlat ta’lim hujjatlariga tenglashtirildi. Bu esa diniy ta’lim tizimining huquqiy maqomini mustahkamlash, uning sifatini oshirish hamda malakali mutaxassislar tayyorlash jarayonini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qildi. O‘zbekistonda diniy ta’lim tizimi Toshkent Islom instituti, 9 ta madrasalar, shuningdek, pravoslav va protestant seminariyalarini o‘z ichiga oladi. Ushbu ta’lim muassasalari yosh avlodni ruhiy boy va ma’naviy jihatdan yetuk etish, shuningdek, millatlararo va dinlararo totuvlik, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashga qaratilgan. O‘zbekiston Islom Akademiyasi va Toshkent Islom Universiteti bazasida Xalqaro Islom Akademiyasi tashkil etilgan. Samarqand shahrida esa Imom Buxoriy Xalqaro markazi faoliyat yuritadi. Mustaqillik yillarida nafaqat musulmon muqaddas joylari barpo etilgan va qayta ta’mirlangan, balki yuzlab cherkovlar, sinagogalar va ibodatxonalar ham qayta tiklandi. Shu jumladan, Toshkent, Samarqand va Navoiy shaharlaridagi pravoslav cherkovlari, Toshkentdagi katolik kosteli va buddaviy ibodatxonasi, shuningdek, Samarqand va Toshkentdagi Arman-apostol cherkovlari mavjud.

1999-yilda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A. Karimovning farmoni bilan Toshkent Islom Universiteti tashkil etilgan. 2018-yilda avval mavjud bo‘lgan Toshkent Islom Universiteti va O‘zbekiston Islom



Akademiya birlashtirilib, Xalqaro Islom Akademiyasi tashkil etildi. Bu oliy ta'lim muassasasi mamlakatdagi musulmon ta'lim tizimida alohida o'rin egallab, diniy soha, shuningdek, ma'naviy tarbiya tizimi uchun malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yosh avlodda diniy faktor va unga munosabatni to'g'ri shakllantirish vazifasini bajaradi.

Ta'lim jarayonida o'quv tillari sifatida rus va o'zbek tillari tanlangan. Islom huquqini o'rganish esa Imom Abu Hanifa ta'limotiga asoslangan an'anaviy ilohiyot-huquqiy metodologiya doirasida amalga oshiriladi. Kelgusida Akademiyaning filiallari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida ochilishi rejalashtirilgan.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida ma'naviy ma'rifatni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralarni tahlil qilganda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

-Zamonaviy O'zbekiston, o'zining sharqona an'analari bilan sodiq qolgan holda, demokratik va madaniyatli jamiyat qurish yo'lida qat'iyat bilan harakat qilmoqda.

-Amaldagi qonunchilik bilan kafolatlangan diniy erkinlik fuqarolarning diniy ehtiyojlarini to'liq qondirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratdi.

-Sobiq Ittifoqning parchalanishidan keyingi Markaziy Osiyo tajribasi, ayniqsa O'zbekiston misolida, ko'rsatdiki, ko'p millatli jamiyatda faqat dinlararo totuvlikka erishish emas, balki ko'p dinlilikni dini bag'rikenglik ruhini mustahkamlashning samarali vositasi sifatida ishlatish ham mumkin.

-O'zbekiston rahbariyatining milliy va dini sohalarda olib borayotgan siyosati 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari



umumjahon deklaratsiyasi hamda inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga doir boshqa xalqaro hujjatlarga to'liq mos keladi.

Shu bilan birga, quyidagi masalalarga e'tibor qaratish zarur:

-O'zbekistonda 2017–2021-yillar uchun “Harakatlar strategiyasi”da belgilangan fan va ta'limni isloh qilish vazifalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda, shuningdek, ushbu sohalarda Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlik ularning amalga oshirilishiga sezilarli yordam bermoqda.

-Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik muammolari ekstremizmning kirib kelishi bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu borada yuksak ahamiyatga ega vosita sifatida ma'rifatning roli ajralmas hisoblanadi. Ma'rifat terrorizm, ekstremizm va ayniqsa yoshlar orasida radikalizatsiyaga qarshi kurashda hamkorlikdagi harakatlarni muvofiqlashtirishda zarur vosita sifatida xizmat qiladi. [4, 237-b];.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzaahmedova P., Rashidova D. *Djadidy: kto oni?* // *Zvezda Vostoka*. 1990, №9
2. O'zbekistonda 2238 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston dinlararo totuvlik bo'yicha namuna hisoblanadi, deya ta'kidladi Diniy ishlar qo'mitasi rahbari. 2015 yil 17 noyabr. <https://www.gazeta.uz/ru/2015/11/17/tolerance>
3. O'zbekiston va islom sivilizatsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi sayti. https://mfa.uz/ru/islamic-cooperation/islamiccivil/8126/?sphrase_id=10320842
4. Makhmutkhodjaeva L.S., Talipova N.T., Isoxojaeva M.Y. Interaction between the Republic of Uzbekistan and the Russian Federation in the field of science and education in the context of the innovative culture formation. *Revista espacios*, №41 (44) 2020, Art.18



5. MASHARIPOVA, Gularam Kamilovna. Dinshunoslik / O'quv qo'llanma / – T.: “NAVRO‘Z”, 2020.
6. A. Abdusamedov, B. Jalilov, A. Tashanov. Dinlar falsafasi / o'quv qo'llanma/. — Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2020